IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

KONTEKSTUAL YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Ataboyeva Mohinur Inoyat qizi
mohinurataboyeva777@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-9456-2313
https://doi.org/10.5281/zenodo.23269588

Annotatsiya. Mazkur maqolada kontekstual yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida kasbiy vaziyatlar, muammoli topshiriqlar, mustaqil tahlil, dalillash va refleksiv faoliyatning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim mazmunini bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyati bilan bog‘lash, muammoli-kontekstli vaziyatlarni yaratish hamda talabalarning mustaqil va refleksiv faoliyatini tashkil etish mazkur kompetensiyani rivojlantirishning muhim pedagogik shart-sharoitlari sifatida asoslangan.
Kalit so‘zlar: kontekstual yondashuv, bo‘lajak pedagog, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, pedagogik shart-sharoit, kasbiy vaziyat, muammoli ta’lim, refleksiya, mustaqil faoliyat, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация. В статье освещаются педагогические условия развития компетенции критического мышления будущих педагогов на основе контекстного подхода. Анализируется роль профессиональных ситуаций, проблемных заданий, самостоятельного анализа, аргументации и рефлексивной деятельности в развитии критического мышления. Обосновано, что связь содержания обучения с будущей профессиональной деятельностью педагогов, создание проблемно-контекстных ситуаций, а также организация самостоятельной и рефлексивной деятельности студентов выступают важными педагогическими условиями развития данной компетенции.
Ключевые слова: контекстный подход, будущий педагог, критическое мышление, компетенция, педагогические условия, профессиональная ситуация, проблемное обучение, рефлексия, самостоятельная деятельность, профессиональная подготовка.

Abstract. The article examines the pedagogical conditions for developing the critical thinking competence of future teachers based on the contextual approach. It analyzes the role of professional situations, problem-based tasks, independent analysis, argumentation, and reflective activity in the development of critical thinking. The study substantiates that linking educational content with future professional activities, creating problem-based contextual situations, and organizing students’ independent and reflective activities are important pedagogical conditions for developing this competence.
Keywords: contextual approach, future teacher, critical thinking, competence, pedagogical conditions, professional situation, problem-based learning, reflection, independent activity, professional training.

Kirish. Bugungi pedagogik ta’limda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi faqat bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan cheklanmay, ularni turli pedagogik vaziyatlarda mustaqil qo‘llay olish, mavjud muammoni tahlil qilish va maqbul yechimni asoslash qobiliyatini ham qamrab olmoqda. Bunday talab ta’lim jarayonini tayyor bilimlarni uzatishga emas, balki talabaning fikrlash faoliyatini faollashtirishga yo‘naltirishni taqozo etadi. Shu jihatdan bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning samaradorligi, avvalo, uni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarning mazmuni va o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Jahon ta’lim amaliyotida pedagogning murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil fikrlashi, muammoni aniqlashi, dalillarni baholashi va asoslangan qaror qabul qilishi kasbiy kompetentlikning muhim jihatlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, pedagogik ta’lim mazmunini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, talabaning real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali faoliyat yuritishini ta’minlash bo‘lajak mutaxassisning fikrlash faoliyatini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan kontekstual yondashuv ta’lim mazmuni, o‘quv faoliyati va bo‘lajak kasbiy faoliyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash imkonini beruvchi yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yangilash jarayonida ham ta’lim mazmunini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, pedagogik ta’limda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash hamda ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini kuchaytirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son Farmonida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida takomillashtirish, pedagogik ta’lim dasturlarini xalqaro ta’lim dasturlariga moslashtirish, dual ta’limdan keng foydalanish hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish vazifalari belgilangan [1].

Mazkur yo‘nalish 2026-yil 24-iyundagi Vazirlar Mahkamasining 321-son qarorida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi misolida yanada aniq ifodalangan. Qarorda xalqaro tajriba asosida bakalavrlar tayyorlash tizimini joriy etish, talabalar bilimini tashqi diagnostika qilish hamda pedagogika oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarini kasbiy sertifikatlash tizimlarini yo‘lga qo‘yish belgilangan [2]. Bu esa bo‘lajak pedagogning faqat o‘zlashtirgan bilimlarini emas, balki ularni kasbiy vaziyatlarda qo‘llash va mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilishga tayyorgarligini ham rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.

Kontekstual yondashuvning mazmuni aynan shu ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lib, unda o‘quv faoliyati asta-sekin kasbiy faoliyat xususiyatlariga yaqinlashtiriladi. Natijada talaba o‘quv materialini tayyor shaklda qabul qilishdan ko‘ra, uni muayyan vaziyat doirasida tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash, turli yechimlarni qiyoslash va o‘z qarorini asoslashga yo‘naltiriladi. Bunday tashkil etilgan ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlash alohida mashq sifatida emas, balki kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog‘langan tabiiy fikrlash jarayoni sifatida shakllanadi.

Shu bilan birga, kontekstual yondashuvni ta’lim jarayoniga joriy etishning o‘zi kutilgan natijani kafolatlamaydi. Buning uchun o‘quv mazmunining kasbiy yo‘nalganligi, muammoli-kontekstli topshiriqlarning mavjudligi, talabaning mustaqil fikrlashi uchun sharoit yaratilishi, pedagogik muloqotning dialogik tashkil etilishi hamda o‘z faoliyatini tahlil qilishga yo‘naltirilgan refleksiv jarayonlarning uyg‘unligi talab etiladi. Demak, masalaning muhim jihati

kontekstual yondashuvdan foydalanishning o‘zi emas, balki uni samarali amalga oshirishni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asoslashdan iborat.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada kontekstual yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, ularning mazmunini ochib berish va o‘zaro bog‘liqligini asoslash asosiy ilmiy vazifa sifatida belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi xorijiy pedagogik tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Lorencová, Jarošová, Avgitidou va Dimitriadou tomonidan olib borilgan tizimli tahlilda o‘qituvchi ta’limiga oid 39 ta tadqiqot umumlashtirilib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish natijasiga metodik, shaxsiy va kontekstual omillar birgalikda ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Mualliflar, xususan, qo‘llaniladigan metod va vositalar, ta’lim jarayonining davomiyligi, fikr-mulohaza, talabalarning motivatsiyasi hamda auditoriyadagi qo‘llab-quvvatlovchi muhitni muhim omillar sifatida ajratadi [1. 844–859].

Huang va Sangning 43 ta empirik tadqiqotni qamrab olgan tizimli tahlilida esa bo‘lajak pedagoglar tanqidiy fikrlashining mazmuniy talqinlari tahlil qilingan. Tadqiqotchilar tanqidiy fikrlashni asosan mantiqiy va qadriyatga asoslangan ikki yo‘nalishda talqin qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari tanqidiy fikrlashning shakllanishi muayyan fan va ta’lim kontekstidan ajratib qaralmasligi kerakligini ko‘rsatadi [2. 638–660].

Tanqidiy fikrlashni kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog‘lash masalasida Cherubini tomonidan olib borilgan tadqiqot alohida ahamiyatga ega. Unda bo‘lajak pedagoglar bilan kasbiy vaziyatlarga asoslangan keyslar tashkil etilib, ularning murakkab pedagogik muammolarni tahlil qilish jarayonidagi fikrlash faoliyati o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish talabalarning o‘z pedagogik faoliyati, mas’uliyati va qarorlarini qayta ko‘rib chiqishiga imkon berganini ko‘rsatadi [3. 228–234].

Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish samaradorligini faqat alohida metod yoki topshiriq bilan izohlash yetarli emas. Ta’lim mazmunining kasbiy yo‘nalganligi, o‘quv vaziyatlarining real faoliyatga yaqinligi, talabaning mustaqil fikrlashi uchun yaratilgan sharoit, pedagogik muloqot va refleksiv faoliyatning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Lorencová va hammualliflarining tadqiqotida kontekstual omillarning alohida guruh sifatida ajratilishi mazkur masalani pedagogik shart-sharoitlar nuqtayi nazaridan tadqiq etish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [1. 844–859].

Huang va Sang tadqiqotida tanqidiy fikrlashning kontekstga bog‘liqligi alohida qayd etilishi ham muhimdir. Mualliflar bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda uning faqat umumiy kognitiv ko‘nikma sifatidagi talqinidan ko‘ra, muayyan fan va kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog‘liq holda shakllanishini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [2. 638–660].

Shu bilan birga, tahlil qilingan tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning alohida metodlari, kasbiy keyslar, refleksiya, fikr-mulohaza va ta’lim muhiti yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, kontekstual yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yagona tizim sifatida belgilash masalasi alohida metodik yechimni talab qiladi. Mazkur holat tadqiqotimizda pedagogik shart-

sharoitlarning mazmunini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini kontekstual yondashuv asosida tashkil etish g‘oyasi tashkil etadi. Tadqiqotda kontekstual yondashuv ta’lim mazmunini bo‘lajak pedagogning kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog‘lash, o‘quv vaziyatlarini kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish hamda talabani mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga yo‘naltirish imkonini beruvchi metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar alohida elementlar emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit tizim sifatida qaraldi. Kompetensiyaviy yondashuv talabaning nazariy bilimlarini amaliy pedagogik vaziyatlarda qo‘llash, muammoni tahlil qilish, dalillangan xulosa chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabaning mustaqil fikri, individual tajribasi va refleksiv faoliyatini ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida belgilashga xizmat qildi.

Tadqiqotda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashda ularning tanqidiy fikrlash kompetensiyasining asosiy faoliyatlari bilan bevosita bog‘liqligiga e’tibor qaratildi. Shu asosda quyidagi uch guruh pedagogik shart-sharoit ajratildi:

1-jadval.

Kontekstual yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Pedagogik shart-sharoit	Mazmuni	Kutiladigan natija
Mazmuniy shart-sharoit	O‘quv materiallarini kasbiy mazmun va real pedagogik vaziyatlar bilan bog‘lash	Vaziyatni tahlil qilish va muammoni aniqlash
Tashkiliy-metodik shart-sharoit	Keys, muammoli topshiriq, munozara, vaziyatli mashqlar va guruhli faoliyatdan foydalanish	Muqobil yechimlarni qiyoslash va asoslash
Refleksiv shart-sharoit	Talabaning o‘z qarori, faoliyati va natijasini tahlil qilishi uchun refleksiv vaziyatlarni tashkil etish	Mustaqil xulosa va asoslangan pedagogik qaror qabul qilish

Tadqiqotning empirik qismida pedagogik kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik topshiriqlar, test, ekspert baholash va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanish nazarda tutildi. Ushbu metodlar orqali bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasining shakllanish holati hamda taklif etilayotgan pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligi aniqlanadi.

Natijalarni tahlil qilishda talabaning muammoni anglash, axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, muqobil yechimlarni qiyoslash, mustaqil xulosa chiqarish va o‘z qarorini asoslash faoliyatlariga e’tibor qaratildi. Shu tariqa tadqiqot metodologiyasi kontekstual ta’lim muhitini yaratishdan tortib, talabaning refleksiv qaror qabul qilishigacha bo‘lgan izchil jarayon asosida tashkil etildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari kontekstual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish alohida metodlardan foydalanish bilangina emas, balki o‘zaro bog‘langan pedagogik shart-sharoitlar majmuini yaratish bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu asosda mazkur jarayon uchun mazmuniy, tashkiliy-metodik va refleksiv shart-sharoitlar ustuvor deb belgilandi.

Mazmuniy shart-sharoit ta’lim mazmunini bo‘lajak pedagogning kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog‘lashni nazarda tutadi. Bunda nazariy materiallar abstrakt shaklda berilmasdan, pedagogik faoliyatda uchrashi mumkin bo‘lgan vaziyatlar, muammolar va qarama-qarshi fikrlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Masalan, talabalarga “O‘quvchi topshiriqni bajarishdan bosh tortdi. Pedagog qanday yo‘l tutishi kerak?” kabi vaziyatli topshiriq berilib, undan muammoni aniqlash, uning ehtimoliy sabablarini ajratish va bir nechta yechimni asoslash talab etiladi. Bunday topshiriqda talaba tayyor javobni takrorlamaydi, balki mavjud axborotni tahlil qilib, o‘z qarorini dalillaydi.

Tashkiliy-metodik shart-sharoit kontekstual vaziyatlarni turli faol metodlar orqali tashkil etishni qamrab oladi. Tadqiqot jarayonida keys, muammoli vaziyat, munozara, rolli o‘yin, “qaror daraxti”, kichik guruhlarda tahlil va dalillashga asoslangan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi. Ushbu vositalarning umumiy jihati talabaning bitta tayyor javobni qabul qilishi emas, balki mavjud vaziyatga nisbatan turli nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqishi va o‘z pozitsiyasini asoslashiga imkon yaratishidir.

Refleksiv shart-sharoit talabaning o‘z fikrlashi va qabul qilgan qarorini qayta tahlil qilishiga imkon beruvchi ta’lim muhitini yaratish bilan bog‘liq. Bunda mashg‘ulot yakunida “Men qanday xulosaga keldim?”, “Qarorimni qaysi dalillar bilan asosladim?”, “Boshqa qanday yechim bo‘lishi mumkin edi?” kabi refleksiv savollardan foydalaniladi. Refleksiya orqali talaba faqat natijani emas, balki o‘z qaroriga olib kelgan fikrlash jarayonini ham anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarning o‘zaro aloqasi quyidagicha ifodalanadi:

2-jadval.

Kontekstual yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar va tanqidiy fikrlash harakatlarining o‘zaro bog‘liqligi

Pedagogik shart-sharoit	Asosiy faoliyat	Rivojlantiriladigan tanqidiy fikrlash harakati
Mazmuniy	Kasbiy vaziyatni tahlil qilish	Muammoni aniqlash, axborotni ajratish
Tashkiliy-metodik	Muammoli va kontekstli topshiriqlarni bajarish	Qiyoslash, dalillash, muqobil yechimlarni izlash
Refleksiv	Qaror va faoliyatni qayta ko‘rib chiqish	Xulosa chiqarish, o‘z fikrini baholash

Mazkur shart-sharoitlarning samaradorligi ularni alohida-alohida emas, yagona pedagogik tizim sifatida qo‘llash bilan belgilanadi. Ya’ni mazmuniy shart-sharoit talabaning oldiga kasbiy muammoni qo‘yadi, tashkiliy-metodik shart-sharoit ushbu muammoni faol tahlil qilish imkonini yaratadi, refleksiv shart-sharoit esa qabul qilingan qarorni qayta baholash va asoslashga olib

keladi. Natijada tanqidiy fikrlashning “muammoni anglash – tahlil qilish – muqobil yechimlarni qiyoslash – qaror qabul qilish – refleksiya” ketma-ketligi yuzaga keladi.

Shu jihatdan kontekstual yondashuvning asosiy imkoniyati ta’lim mazmunini bevosita kasbiy faoliyat bilan bog‘lashida namoyon bo‘ladi. Bunday jarayonda talaba pedagogik bilimlarni faqat eslab qolishga emas, balki ularni muayyan vaziyatga tatbiq etishga majbur bo‘ladi. Bu esa tanqidiy fikrlashni nazariy tushuncha darajasidan amaliy faoliyat darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari avvalgi tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan hamohangdir. Xususan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda metodik va kontekstual omillarning birgalikdagi ta’siri muhimligi qayd etilgan [1. 844–859]. Tanqidiy fikrlashning muayyan ta’lim va kasbiy kontekst bilan bog‘liqligi esa Huang va Sang tadqiqotlarida asoslangan [2. 638–660]. Bizning tadqiqotimizda mazkur qarashlar rivojlantirilib, ularni bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi doirasida aniq pedagogik shart-sharoitlar tizimi sifatida ifodalashga e’tibor qaratildi.

Demak, tadqiqot natijasida kontekstual yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizmi kasbiy mazmun → muammoli-kontekstli faoliyat → mustaqil qaror → refleksiv tahlil izchilligida tashkil etilishi aniqlandi. Mazkur izchillik bo‘lajak pedagogning nafaqat mavjud pedagogik vaziyatni tahlil qilishi, balki o‘z qarorini asoslash va uning natijasini baholash imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Xulosa. Kontekstual yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi ta’lim mazmunining kasbiy yo‘nalganligi, faol metodlarning maqsadli qo‘llanilishi va refleksiv faoliyatning tizimli tashkil etilishiga bevosita bog‘liq. Shu asosda mazmuniy, tashkiliy-metodik va refleksiv pedagogik shart-sharoitlarning o‘zaro uyg‘unligi bo‘lajak pedagoglarda muammoli vaziyatni tahlil qilish, dalillangan qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida belgilandi.

Tavsiyalar:

- pedagogik ta’lim fanlari mazmuniga real kasbiy vaziyatlarga asoslangan muammoli topshiriqlarni tizimli kiritish;
- talabalarning bir nechta yechimni qiyoslash va o‘z qarorini dalillashiga imkon beruvchi keys va vaziyatli topshiriqlardan foydalanish;
- mashg‘ulotlarda mustaqil fikrlash va refleksiyani rag‘batlantiruvchi savol hamda topshiriqlar ulushini oshirish;
- bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholashda faqat bilimni o‘zlashtirishni emas, balki tahlil qilish, dalillash, qaror qabul qilish va refleksiyani ham hisobga olish;
- kontekstual yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlarni turli pedagogik fanlar va ta’lim bosqichlarida tajriba-sinovdan o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 24-iyundagi 321-son “Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro tajriba asosida bakalavrlar tayyorlash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2026.
4. Lorencová H., Jarošová E., Avgitidou S., Dimitriadou C. Critical thinking practices in teacher education programmes: a systematic review // Studies in Higher Education. – 2019. – Vol. 44, No. 5. – P. 844–859.
5. Huang J., Sang G. Conceptualising critical thinking and its research in teacher education: A systematic review // Teachers and Teaching: Theory and Practice. – 2023. – Vol. 29, No. 6. – P. 638–660.
6. Cherubini L. Exploring prospective teachers’ critical thinking: Case-based pedagogy and the standards of professional practice // Teaching and Teacher Education. – 2009. – Vol. 25, No. 2. – P. 228–234.
7. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1933. – 301 p.
8. Ennis R.H. Critical Thinking. – Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 1996.
9. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Millbrae, CA: Insight Assessment, 2015.
10. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – 5th ed. – New York: Psychology Press, 2014.